

O'ZBEK TILIDA QO'LLANILAYOTGAN AT (AXBORORT TEXNOLOGIYALARI) TARJIMALARI VA ULARNING MUQOBILLARI

*Tilonboyeva Nodira Zokirjon qizi
Alisher navoiy nomidagi O'zbek tiloi va adabiyoti
universiteti O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili
ta'limi mutaxassisligi magistranti
nodirabegim9907@gmail.com
(99) 233 00 19*

Annotatsiya: Kundan kunga rivojlanayotgan dunyoda ilm-fan ham to‘xtovsiz o‘sib bormoqda. Buning natijasida fanda bizga notanish bo‘lgan terminlar soni ko‘paymoqda. Ayniqsa, hozirgi davrga kelib inson hayotini kompyuter, uyali aloqa vositalari va ijtimoiy tarmoqlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Axborot texnologiyalari rivojlangani sari unga aloqador yangidan yangi terminlarning paydo bo‘ishi ham jadallahshmoqda. Bu esa o‘z navbatida tilshunoslikning terminalogiya sohasida tarjima bo‘yicha qiyinchiliklarni va muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Kalit so‘zlar: Axborot texnologiyalari, termin, texnologiya, tarjima, AKT, kompyuter

Axborot texnologiyalari (inglizcha: Information Technology(IT)) — bu kompyuter tizimlari, dasturiy ta’minot, dasturlash tillari, ma’lumotlar, ma’lumotlarni qayta ishlash va saqlashni o‘z ichiga olgan tegishli sohalar to‘plami. Axborot texnologiyalari (AT) axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)ning bir qismini tashkil qiladi. Garchi odamlar eng qadimgi yozuv tizimlari yaratilganidan beri ma’lumotlarni olish, saqlash, manipulyatsiya qilish va muloqot qilish bilan shug‘ullangan bo‘lsalar-da, zamonaviy ma’noda axborot texnologiyasi atamasi birinchi marta 1958-yilda Garvard Business Review jurnalida chop etilgan maqolada paydo bo‘lgan. Garold J. Leavitt va Tomas L. Uislerlar mualliflik qilgan maqolada shunday yozishadi: “So‘nggi o‘n yil ichida Amerika biznesida yangi texnologiya qo’llanila boshladi, shu qadar yangiki, uning ahamiyatini baholash hali ham qiyin. Ushbu texnologiyaning ko‘p jihatlari noaniq bo‘lsa-da, u boshqaruvni tashkil qilishda aniq va keng qamrovli ta’sir ko’rsatadigan boshqaruv sahnasiga tez o’tishi aniq ko’rinadi. Ushbu maqolada biz ushbu ta’sirlar haqida fikr yuritmoqchimiz, ayniqsa ular kelajakdagi o’rta va yirik biznes firmalariga tegishli.

Yangi texnologiya hozircha bitta o’rnatilgan nomga ega emas. Biz buni *axborot texnologiyalari* deb ataymiz. U bir-biriga bog’liq bo‘lgan bir nechta qismlardan iborat. Ulardan biri katta hajmdagi ma’lumotlarni tezkor qayta ishslash texnikasini o‘z ichiga oladi va u yuqori tezlikda ishlaydigan kompyuter tomonidan tasvirlangan. Ikkinchi

qism qarorlar qabul qilishda statistik va matematik usullarni qo'llashga qaratilgan; u matematik dasturlash kabi texnikalar va operatsiyalarni tadqiq qilish kabi metodologiyalar bilan ifodalanadi. Uchinchi qism tayyorlanmoqda, garchi uning ilovalari hali juda aniq paydo bo'lмаган; u kompyuter dasturlari orqali yuqori darajadagi fikrlashni simulyatsiya qilishdan iborat”.

AT atamasi odatda, kompyuterlar va kompyuter tarmoqlarining sinonimi sifatida ishlataladi, lekin u televizor va telefon kabi boshqa axborot tarqatish texnologiyalarini ham qamrab oladi. Iqtisodiyot doirasidagi bir qancha mahsulot yoki xizmatlar axborot texnologiyalari, jumladan, kompyuter texnikasi, dasturiy ta'minot, elektronika, yarimo'tkazgichlar, internet, telekommunikatsiya uskunalari va elektron tijorat bilan bog'liq. Amaldagi saqlash va qayta ishlash texnologiyalariga asoslanib, AT rivojlanishining to'rtta fazasini ajratish mumkin: mexanikgacha (miloddan avvalgi 3000-yildan miloddan avvalgi 1450-yilgacha), mexanik (milodiy 1450-yildan milodiy 1840-yilgacha), elektromexanik (milodiy 1840-yildan milodiy 1940-yilgacha) va elektron (1940-yildan hozirgi kungacha)¹.

Axborot texnologiyalari, shuningdek, informatikaning bir tarmog'i bo'lib, uni protsedura, tuzilma va har xil turdag'i ma'lumotlarni qayta ishlashni umumiyoq o'rGANISH sifatida aniqlash mumkin. Ushbu soha butun dunyo bo'ylab rivojlanishda davom etar ekan, uning umumiyoq ustuvorligi va ahamiyati ham oshib bordi va turli sohalarda ATga oid terminlari kirib kela boshladi. Hozirgi kunda hisoblash texnikasi vazifasini kompyuter bajarmogda, shunday ekan AT so'zi ishlatilganda asosan kompyuter texnologiyasi tushuniladi.

Kundalik hayotimizda axborot texnologiyalariga oid terminlardan juda faol foydalanamiz; muloqot jarayonida: (ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, elektron pochta, chat,...); axborot olish chog'ida (xabarlar, ob-havo ma'lumotlari,...); axborotni qayta ishlashda (matematik amallarni bajaruvchi dasturlar, grafiklar, videomyozuv,...); o'qish jarayonida (elektron kitoblar, interaktiv darslar, qo'llanmalar,...); dam olishda (kinolar, musiqalar, o'yinlar,...).

Oddiy uyali aloqa vositalarimiz ham AT qurilma hisoblanadi, chunki biz bu qurilmada qandaydir ma'lumotlar qidiramiz, yuboramiz yoki saqlaymiz. Ish jarayonimiz kompyuter texnologiyalari bilan bog'liq bo'lgani sababli, har bir ishxonada alohida AT bo'limlar mavjud, hattoki umuman kompyuterga aloqasi bo'lмаган korxonalarda ham. Axborot tenologiyasi insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida ham mavjud bo'lgan bo'lsa-da, hozirgi zamon axborotlashgan jamiyatining o'ziga xos xususiyati shundaki, sivilizatsiya tarixida birinchi marta bilimlarga erishish va ishlab chiqarishga sarflanadigan kuch energiya, xomashyo, materiallar va moddiy iste'mol buyumlariga sarflanadigan xarajatlardan ustunlik

¹ Wikipedia

qilmoqda, ya'nini axborot texnologiyalari mayjud yangi texnologiyalar orasida yetakchi o'rinni egallamoqda.

Axborot texnologiyalarning tez sur'atlardagi rivoji u bilan bog'liq bo'lgan tilshunoslik sohasini ham chetlab o'tmadidi. Sohaning rivoji natijasida tilimizga shu soha bilan bog'liq bo'lgan juda ko'p terminlar o'zlashdi, ayrimlari so'zlashuv tilida ham o'rnashishga ulgurdi. AT sohasi dunyo miqyosida keng rivojlanishi bilan bu sohaga mansub kasblar va kasb egalari ham paydo bo'la boshladi. Axborot texnologiyalarga oid tarjima va izohli lug'atlar yaratilgan. Bu izlanishlar soha terminologiyasini tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etadi. AT sohasi AKT sohasining bir qismi deb oladigan bo'lsak quyidagi "Axborot-kommunikatsiya texnalogiyalari izohli lug'ati"dagi atamalar ham AT sohasiga oid deya olamiz va bir qancha so'zlar chet tilida qanday bo'lsa, shundayligicha tilimizda o'zlashganini ko'rishimiz mumkin.

абонент

ингл: *subscriber*

рус: *абонент*

Хизмат кўрсатувчи ахборот объекти (тизим, тармоқ, мажмуа) билан ўзаро ишлаш ҳуқуқига эга қурилма, юридик ёки жисмоний шахс.

Абонентнинг ҳар қандай фойдаланувчидан фарқи шундаки, у хизмат кўрсатувчи ахборот объекти фойдаланувчилари рўйхатига

киритилган бўлади.

Абонент atamasi rus tilida qanday foydalanilsa, shundayligicha o'zbek tiliga olib kirilgan. O'zbek tilida "foydalanuvchi" (kompyuter yoki tarmoq xizmatidan foydalanadigan shaxs) so'zi muqobil bo'la oladi.

адаптив код дафтари

ингл: *adaptive codebook*

рус: *адаптивная кодовая книга*

Нутқ сигналларининг танланмалари йигилган код дафтарчаси. Бу нутқ сигналларининг параметрлари иш жараёнида кириш сигналининг "нозик" тузилмасини таҳлил қилиш ҳисобига автоматик равишда янгиланиб туради.

Adaptive so'zi o'zbekchaga ko'proq "moslashuvchan" ba'zan "o'zgaruvchan" deb tarjima qilinadi. Va yuqoridaq atamaga "o'zgaruvchan kod daftari" atamasi muqobil bo'la oladi.

Basis alternative (базисный вариант) – qurilayotgan mazkur loyiha yechimini taqqoslash uchun qabul qilinadigan boshlang‘ich loyiha yechimi. Bu esa izohli lug‘atga “bazis variant” deb kiritilgan. Bu termini esa “muqobil asos” bilan almashtirsa mazmuniga ko‘p ham zarar yetmaydi. Ya’ni yuqoridagi terminlar shunchaki bizni ko‘zimiz tushganlari va misol tariqasida olganlarimiz hisoblanadi.

O‘zbek terminalogiyasida chet tilidan o‘zlashayotgan terminlarni muqobillarsiz, o‘z holicha yoki rus tilidagi muqobilini kiritish va ulardan keng miqyosda foydalanish tilimizda ko‘plab chet tilidagi so‘zlardan foydalanishga olib keladi va keyinchalik yangi terminlar muqobil bo‘la oladigan so‘zlarni surib chiqarishi ham ehtimoldan holi emas. Tilimizning imkoniyataridan keng foydalanib, tarjima sohasiga ko‘proq e’tibor qaratishimiz o‘z tilimizning tub boyligining torayishini, o‘zlashgan so‘zlar muqobilini surib chiqarishini, o‘z tilimizning ustuvorligini yo‘qotishini oldini olishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Aripov A N .[va boshqalar] Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug‘ati. Toshkent, 2004
2. Amurullayeva M J. “Hozirgi o‘zbek tilida AKT terminlari va ularni takomillashtirish”. Вестник магистратуры. 2022. (127)
3. Garold J. Leavitt va Tomas L. Uisler. Garvard Business Review, 1958
4. Turakulova, O.A. 2023. “Adabiyot darslarida tekstual-analitik tahlil asosida o‘quvchilarda mutolaani rivojlantirish” O‘zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari. 1(5): 147-155. DOI: 10.52773/tsuull.uzlc.
5. aphil.2023.1.5/NMRA7590.